

## General xonadoniga tashrif

Joriy yilning 14 yanvar kuni "Gidromelioratsiya" fakulteti jamoasi hamda faol yoshlari Mirzo Ulug'bek tumanining "Lashkarbegi" mahallasida istiqomat qilayotgan ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, chegara qo'shinlari faxriy generali Artikbaev Abdullajon Artikbaevichning xonadoniga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida talabalar generalning hayot yo'li xizmat o'tagan damlari hamda vatanimiz mustaqilligi uchun qo'shgan hissasi to'g'risida ma'lumotlar olishdi. Tashrif davomida fakultet jamoasining bayram sovg'asi ham topshirildi.



**GM fakulteti dekan o'rinbosari X.Tuychiev axboroti**

**Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**